



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 12 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 12

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 12



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Диларам Иноятова НЕМЕЦКАЯ ДИАСПОРА УЗБЕКИСТАНА: СОХРАНЕНИЕ ЭТНИЧЕСКОЙ И КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ.....	5
2. Лазизахон Алиджанова ДИНЛАРАРО МУЛОҚОТ ВА БАҒРИКЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ВА ЖАҲОН ТАЖРИБАСИ.....	11
3. Umida Azamjonova TARIXIY ME'MORIY YODGORLIKLARNI KONSERVATSIYA VA TA'MIRLASH METODLARI TANLILI (XORIJIY TAJRIBALAR MISOLIDA).....	16
4. Javlonbek Begaliyev O'ZBEKISTONDA SOVET DAVRIDA SAN'AT VA MADANIYAT YO'NALISHLARIDA MUALLIFLIK HUQUQI MASALASI BILAN BOG'LIQ AYRIM MULOHAZALAR (1930-1970 YILLAR MISOLIDA).....	20
5. Azizbek Muminov FARG'ONA VODIYSI TABIIY OBYEKTLARINING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA ULARNING ZAMONAVIY TURIZM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI.....	26
6. Фируза Мухитдинова ИНСОННИНГ ЎЗ ҲУҚУҚ ВА МАНФААТЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ ҲУҚУҚИ – ЯНГИЛАНГАН КОНСТИТУЦИЯДА МУСТАҲКАМЛАНГАН АСОСИЙ ҚОИДА.....	31
7. Sardorbek Rahimberdiyev MEHNAT MIGRANTLARINING IJTIMOIIY HOLATI VA MADANIY IDENTIFIKATSIYASI (KOREYADAGI O'ZBEKLAR MISOLIDA).....	42
8. Baxtiyar Kurbanov 1941-1943-YILLARDA TEMIR YO'L TRANSPORTI ISHINING FRONT VA XALQ HO'JALIGI MANFAATLARI UCHUN QAYTA QURILISHI.....	48
9. Ғайратбек Хайдаров, Мухитдин Саттаров ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛИДАГИ ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ.....	55
10. Гуласал Шакирова ПОНЯТИЕ И ЭВОЛЮЦИЯ МЕДИАКОНВЕРГЕНЦИИ В ПОЛИТИЧЕСКИХ КОММУНИКАЦИЯХ.....	60
11. Shuxrat Toshturov O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKOLOGIYA VA BIOLOGIK RANGBARANGLIKNI SAQLASH SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIGI.....	71
12. Пётр Чублуков РОЛЬ ЗАВОЕВАТЕЛЬНЫХ ПОХОДОВ АЛЕКСАНДРА МАКЕДОНСКОГО В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРЫ ЭЛЛИНИЗМА НА ТЕРРИТОРИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ.....	79



Shuxrat Eshonqulovich Toshturov,
Navoiy davlat universiteti doktoranti
tosturovsuhrat@gmail.com

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKOLOGIYA VA BIOLOGIK RANGBARANGLIKNI SAQLASH SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIGI

For citation: Shukhrat E. Toshturov. INTERNATIONAL COOPERATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE FIELD OF ECOLOGY AND BIODIVERSITY CONSERVATION. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 12.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18035195>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar, xususan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) bilan hamkorlik doirasida iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish bo‘yicha Kioto protokoli va Parij bitimi, BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlari, Barqaror rivojlanish maqsadlari global dasturlarini ratifikatsiya qilishi, Orolbo‘yi hududida yuzaga kelgan og‘ir ekologik vaziyatni yumshatishga doir tashabbus va loyihalarning amalga oshirilishi, biologik xilma-xillikni saqlash yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan. Yuzaga kelgan ekologik muammolarni bartaraf etish va biologik rangbaranglikni saqlashda xalqaro hamkorlikning ahamiyat to‘g‘risida xulosaviy fikr va takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNEP, Parij bitimi, Kioto protokoli, Mingyillik rivojlanish maqsadlari, Barqaror rivojlanish maqsadlari, Orolbo‘yi ekologik fojeasi, biologik xilma-xillik, CITES CoP20 konferensiyasi.

Шухрат Эшонкулович Тоштуров,

Докторант Навоийского государственного университета
tosturovsuhrat@gmail.com

МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В СФЕРЕ ЭКОЛОГИИ И СОХРАНЕНИЯ БИОЛОГИЧЕСКОГО РАЗНООБРАЗИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются вопросы участия Республики Узбекистан в международном сотрудничестве, в частности во взаимодействии с Организацией Объединённых Наций (ООН) в сфере противодействия изменению климата, включая ратификацию Киотского протокола и Парижского соглашения, а также глобальных программ ООН — Целей развития тысячелетия и Целей устойчивого развития. Рассматриваются инициатива и реализуемые проекты, направленные на смягчение тяжёлой экологической ситуации в Приаралье, а также меры по сохранению биологического разнообразия. В завершение приводятся выводы и предложения, связанные со значением международного

сотрудничества в решении экологических проблем и обеспечении сохранения биологического разнообразия.

Ключевые слова: Организация Объединённых Наций, ЮНЕП, Парижское соглашение, Киотский протокол, Цели развития тысячелетия, Цели устойчивого развития, экологическая катастрофа Приаралья, биологическое разнообразие, конференция CITES CoP20.

Shukhrat E. Toshturov,

Doctoral Candidate, Navoi State University

tosturovsuhrat@gmail.com

INTERNATIONAL COOPERATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE FIELD OF ECOLOGY AND BIODIVERSITY CONSERVATION

ABSTRACT

This article examines the participation of the Republic of Uzbekistan in international cooperation, particularly in its collaboration with the United Nations (UN) in combating climate change. It highlights Uzbekistan's ratification of the Kyoto Protocol and the Paris Agreement, as well as its involvement in the UN's global programs — the Millennium Development Goals and the Sustainable Development Goals. The article also analyzes initiatives and ongoing projects aimed at mitigating the severe environmental crisis in the Aral Sea region and measures undertaken to preserve biological diversity. The conclusion presents findings and recommendations regarding the importance of international cooperation in addressing environmental challenges and ensuring the conservation of biodiversity.

Index Terms: United Nations, UNEP, Paris Agreement, Kyoto Protocol, Millennium Development Goals, Sustainable Development Goals, Aral Sea environmental disaster, biodiversity, CITES CoP20 conference.

1. Dolzarbligi:

Zamonaviy dunyoning eng yirik va universal tashkiloti bo'lgan BMT bilan hamkorlik aloqalarining kengaytirish har bir suveren davlatning barqaror taraqqiyot strategiyasini shakllantirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, global kun tartibidagi dolzarb masalalarda faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasining 1992-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga (BMT) a'zo bo'lishi mamlakatning xalqaro maydondagi o'rni va roli tubdan yangi bosqichga ko'tardi. Ushbu tarixiy voqea mustaqil O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish yo'nalishlarida global hamjamiyat bilan tizimli, izchil va o'zaro manfaatli hamkorlikni shakllantirishiga mustahkam asos yaratdi.

XXI asrga kelib insoniyat taraqqiyotiga jiddiy xavf tug'dirayotgan ekologik muammolar, xususan iqlim o'zgarishi, cho'llanish, suv tanqisligi, biologik xilma-xillikning qisqarishi va sanoat chiqindilari global ekologik muvozanatga tahdid sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday sharoitda O'zbekistonning ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish hamda atrof-muhitga antropogen bosimni kamaytirishga qaratilgan davlat siyosati alohida dolzarblik kasb etadi. Mazkur real voqeliklar fonida O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar, xususan BMT bilan ekologiya va iqlim o'zgarishi sohasidagi hamkorligi milliy va global darajadagi muammolarni bartaraf etishda muhim o'rin tutadi. Zero, BMT barcha tizimlari o'z faoliyatlarining turli sohalarida u yoki bu yo'llar bilan atrof-muhit muhofazasiga aralashsada, bu boradagi uning yetakchi muassasasi - Atrof muhit bo'yicha dasturi (YUNEP) hisoblanadi. BMTning ekologik vijdoni bo'lishi maqsadida tashkil etilgan YUNEP - butun dunyo miqyosida atrof-muhitning holatini baholaydi va xalqaro hamkorlikni talab etuvchi muammolarni aniqlaydi; xalqaro ekologik qonunchilikni ishlab chiqishga yordam ko'rsatadi; ijtimoiy-iqtisodiy siyosat va BMT tizimi dasturlariga ekologik mulohazalarni bir butun qilib to'plashga ko'maklashadi.

Ekologik muammolarning murakkabligi va transchegaraviy xususiyatga egaligi ilg'or xalqaro tajribani chuqur o'rganish, ekologik boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini tatbiq etish va barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini milliy siyosatga uyg'unlashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu ma'noda, O'zbekistonning BMT bilan ekologik sohada olib borayotgan hamkorligi nafaqat milliy manfaatlarga, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekistonning Parij bitimi va Kioto protokoli kabi xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilishi, Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasini qabul qilishi, Orolbo'yi mintaqasida yuzaga kelgan ekologik inqirozni yumshatish, bioxilma xillikni saqlashga qaratilgan xalqaro tashabbuslarni ilgari surishi hamda BMTning tegishli institutlari bilan qo'shma loyihalarni amalga oshirishi ushbu hamkorlikning amaliy ko'rinishidir.

2. Metodlar:

Maqola matnini tayyorlashda tarixiylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez kabi ilmiy tadqiqot tamoyil va metodlaridan foydalanildi va O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi va biologik xilma-xillik saqlash masalalarida xalqaro tashkilotlar, xususan BMT bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlar yoritildi.

3. Tadqiqot natijalari:

O'zbekistonda atrof muhit muhofazasi masalasi turli ilmiy va tarixiy manbalarda keng yoritilgan bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida O'zbekistondagi ekologik vaziyatni o'rganishda S.Davletovning “O'zbekistondagi ekologik vaziyat va uning ijtimoiy muammolari (XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshi)” (Toshkent, 2012) nomli monografik tadqiqot ishi muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, “Yangi O'zbekiston”, “Xalq so'zi” gazetalar va “Jamiyat va boshqaruv”, “Ekolgiya xabarnomasi” kabi jurnallarda nashr etilgan maqolalarda O'zbekistonda atrof muhit muhofazasi, bioxilma xillikni asrash jarayonlarining holati va bu borada keyingi yillarda amalga oshirilayotgan amaliy ishlar yoritiladi. Tadqiqotchi O.Abdimo'minovning “Markaziy Osiyo va Birlashgan Millatlar Tashkiloti” (Toshkent, 2025) nomli monografiyasi hamda “Markaziy Osiyo davlatlarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan munosabatlari tarixi” nomli tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasida (Toshkent, 2025) O'zbekistonda mazkur sohadagi xalqaro aloqalari ilmiy jihatdan tahlil qilinib atrof muhit muhofazasi bioxilma xillikni asrash masalalariga ham to'xtaladi. Arxiv materiallari (O'zbekiston Milliy Arxivi (O'zMA) hujjatlari, fond raqamlari ko'rsatilgan holda) mamlakatda davlat qo'riqxonalarini o'rmonlarini ko'paytirish va muhofaza qilishni amalga oshirish haqidagi faktik ma'lumotlarni to'ldiradi.

Bugungi kunga kelib inson faoliyati global iqlim tizimini o'zgartirib yuborishi mumkinligi dunyoning yetakchi olimlari va ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'z isbotini topdi. Shundan kelib chiqqan holda 1992-yilda YUNEP va Xalqaro meteorologiya tashkiloti birgalikda BMTning Iqlim o'zgarishlari doirasidagi Konvensiyasini ishlab chiqdi. 1997-yilda Yaponiyaning Kioto shahrida sanoati rivojlangan mamlakatlar 2008-2012-yillarda global qizishning oldini olish, issiqxona gazlarini atmosfera havosiga tashlanmalari miqdorini kamaytirish majburiyatini belgilagan Protokolni imzolaydi [1]. 2015-yil Fransiya poytaxti Parij shahrida global isish sur'atlarini pasaytirish bo'yicha Kioto protokoli o'rini bosuvchi Bitim qabul qilinadi. Ishtirokchi davlatlar umumiy maqsadga erishish bo'yicha o'z hissalarini mustaqil ravishda belgilashi va har besh yilda bir marotaba qayta ko'rib chiqishi lozimligi tavsiya etildi [2].

O'zbekiston Respublikasi iqlim o'zgarishlari yuzasidan BMTning xalqaro tashabbuslarini to'liq qo'llab-quvvatladi va 1993-yil “Iqlim o'zgarishi to'g'risida”gi Konvensiyani, 1999-yilda Kioto protokolini ratifikatsiya qildi. 2017-yil 19-aprelda BMTning Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohida O'zbekiston Parij Bitimiga qo'shilishi haqidagi shartnomani imzoladi va 2018-yil 3-oktabrda uni ratifikatsiya qildi. Mazkur xalqaro hujjatlarga qo'shilish orqali O'zbekiston Respublikasi 2030 yilgacha uzoq muddatli istiqbolda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish borasidagi harakatlarni kuchaytirish, 2030 yilga borib issiqxona gazlari solishtirma tashlanmalarini 2010 yildagi darajaga nisbatan yalpi ichki mahsulot birligiga 35 foizga qisqartirishni maqsad qildi [3].

O'zbekiston ekologik muammolarni bartaraf etishda BMT bilan hamkordagi 2000-2015 yillarda amalga oshirgan - Mingyillik rivojlanish maqsadlari va 2015-2030 yillarga mo'ljallangan -

Barqaror rivojlanish maqsadlari nomli global dasturlarining bajarilishida ham namoyon bo'ldi. Jahonning turli hududlarida ushbu maqsadlarni bajarishga hali kirishilmagan bir davrda O'zbekiston bu borada samarali natijalarga erishdi va sohalarida qator qo'shma loyihalarni amalga oshirdi [4]. Mazkur global dasturlar dorasida O'zbekiston atmosfera havosining ifloslanishini oldini olish, ko'kalamzorlashtirilgan hududlarni, ayniqsa shahar va avtomobil yo'llari chetida yashil hududlarni kengaytirish, yirik shaharlar atrofida yashil qalqonlar tashkil etish, iqtisodiyotning barcha sohalarida yashil, ekologik toza, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni amaliyotga keng tadbiiq etish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va bioxilma xillikni saqlash tadbirlarini amalga oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2021-yil 21-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasida bir qator global va mintaqaviy muammolarga to'xtalib, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi butun insoniyat kelajagi uchun hayot-mamot masalasi ekanligini ta'kidlaydi va ularni oldini olish yuzasidan bir qator tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, O'zbekistonda kelgusida bioxilma-xillik Konvensiyasi ishtirokchilari yig'ilishlaridan birini o'tkazish, BMT shafeligida global ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlarini muhokama qilish maqsadida O'zbekistonda Atrof-muhit bo'yicha BMTning yuqori darajadagi 6-Assambleyasini o'tkazish, BMTning yangi ekologik siyosati asoslarini tashkil etishga qaratilgan Butunjahon ekologiya Xartiyasini ishlab chiqish tashabbuslarini ilgari surdi [5]. O'zbekiston Respublikasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, "yashil maydonlar"ni kengaytirish ishlari davlat siyosati darajasida ko'tarildi, sohaga oid huquqiy-meyoriy baza mustahkamlanildi va amaliy ishlar boshlandi. Xususan, O'zbekistonda 2019-2028-yillarda biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasiga muvofiq muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydonini 7 foizdan 12 foizga yetkazish, o'rmon xo'jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida o'rmon fondi yerlari maydonini bugungi 11,2 million gektardan 14 million gektarga yetkazish vazifasi belgilandi [6].

O'zbekiston va unga tutash mintaqalarda iqlim o'zgarishlarining oqibatlariga birinchi navbatda suv resurslaridagi o'zgarishlarini kiritish mumkin. Respublikada tuproq unumdorligining pasayishi, qishloq xo'jaligi ekinlari rivojlanishining sustlashishi hamda Orolbo'yi ekologik holati xususan, Orol dengizida yuzaga kelayotgan salbiy ko'rinishlarda aks etmoqda [7]. Markaziy Osiyo mintaqasining eng yirik ekologik muammolaridan biri bo'lgan Orol fojeasi bugungi kunda ko'lami jihatidan dunyodagi eng yirik ekologik fojialaridan biriga aylandi. Tarixiga nazar tashlansa, o'z davrida jahondagi eng katta ko'llarning to'rtinchisi sanalgan Orol dengizi suv sathi 1911-1962-yillarda eng yuqori nuqtada bo'lib 53,4 metrni, suv hajmi -1064 km³.ni, suv yuzasi- 66 ming km².ni, minerallashuv darajasi esa 1 m³da 10-11 grammni tashkil qilgan [8]. Sovetlar davrida rejali iqtisodiyotning avtoritar tamoyillari Markaziy Osiyoning aksariyat hududlarida bo'lgani kabi Orol dengizi ekologik tanazzulining kelib chiqishiga asosiy sabab bo'ldi. O'zbekistonda Sovet Ittifoqining paxta mustaqilligini ta'minlash maqsadiga erishishi uchun shafqatsiz usullardan foydalanildi. Respublikadagi xonadonlarning faqat deraza tokchalari-yu tomilariga paxta ekilmadi xolos. Hamma narsa bir maqsadga - paxtaga xizmat ko'rsatishga yo'naltirildi [9]. Natijada so'nggi 50 yil mobaynida Markaziy Osiyo mintaqasining asosiy suv arteriyalari bo'lgan Amudaryo va Sirdaryoning Orolga quyiladigan suv miqdori besh karra qisqardi va dengiz hajmi 14 marotabaga kichraydi. Suvining sho'rlanish darajasi 25 marotabaga oshib jahon okeanlari minerallashuv darajasidan ham oshib ketdi. Bir paytlar ovchilik taraqqiy etgan suv havzasi o'rnida maydoni 3,5 million gektarga teng bo'lgan qum-tuz cho'li yuzaga keldi va 1,5 mlrd. tonna miqdorida tuz qatlami hosil bo'ldi. Doimiy esadigan shamollar tufayli har yili 100 million tonna qum va tuz havoga ko'tarilib mintaq, balki dunyo ekologiyasiga jiddiy tahdid solishiga sabab bo'lmoqda [10]. Bugungi kunda qum va tuzdan iborat chang dengiz sohilidan 300-500 km masofagacha bo'lgan hududlarni zaharlamoqda va bu jarayoni dengizning qurigan hududining ortishi sayin yanada kuchayib bormoqda [11]. Shu sababli O'zbekiston rahbariyati tomonida dunyoning turli nufuzli xalqaro tashkilotlari, xususan, BMTning minbarlarida Orol va Orolbo'yidagi yuzaga kelgan ekologik ofatga xalqaro jamoatchilik e'tiborini qaratmoqda. Natijada YUNEP, BMTTD (Taraqqiyot dasturi) hamda donor va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda 1993-yilda "Orol dengizi

havzasidagi davlatlarga yordam ko'rsatish bo'yicha harakatlar dasturi"ni amalga oshirishga kirishildi. Ushbu loyihani tayyorlashda BMTTD, YUNEP, Jahon banki, GEF, YETTB, OTB, TESIS, Germaniyaning KfV banki, Quvaytning ERA fondi, YUSAID va boshqalar qatnashdi. Mazkur dasturni amalga oshirish uchun xalqaro tashkilotlar va donorlar tomonidan 47,7 mln AQSH dollari grant sifatida va 278 mln AQSH dollari qaytariladigan mablag' sifatida jalb qilinishi mintaqadagi ekologik hamda ijtimoiy vaziyatni yaxshilash imkonini berdi [12].

O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1993-2025-yillarda BMT Bosh Assambleyasidagi chiqishlarida Orol muammosiga to'xtalib, bu borada xalqaro hamkorlikka da'vat qilindi. Bu borada erishilgan eng katta yutuqlardan biri 1993-yilda Markaziy Osiyo davlatlari ishtirokida Orolni qutqarish xalqaro Jamg'armasining tashkil etilishi bo'ldi. 2008-yildan Jamg'armaga BMT Bosh Assambleyada kuzatuvchi maqomi berildi. 2017-yilga kelib bu boradagi ishlar yangi bosqichga ko'tarildi [13]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017-yil BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar, mintaqaning umumiy suv zahiralardan oqilona foydalanish, Orol dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarni bartaraf etish uchun xalqaro sa'y-harakatlarni faol amalga oshirish zarurligini ta'kidladi [14]. Mintaqada yuzaga kelgan ekologik muammolarning oqibatlari haqida xalqaro hamjamiyatga muntazam tarzda bong urilishi o'z samarasini berdi va 2018-yil 27-noyabrda BMT qarorgohida BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'ptomonlama Trast fondi (UN Multi-Partner Human Security Trust Fund for the Aral Sea region in Uzbekistan (MPHSTF) rasman faoliyatini boshladi [15]. Jamg'arma tashkil etilishiga qadar muammoga ko'proq ekologik inqiroz sifatida baho berildi hamda asosan Orol dengizi qurishi, flora va faunaning falokatga yuz tutishi kabi oqibatlarni yumshatishga qaratilgan bo'lsa, jamg'armaning tuzilishi esa bevosita Orolbo'yida istiqomat qilayotgan aholining iqtisodiy, ijtimoiy, tibbiy, ekologik va boshqa muammolariga ham jiddiy e'tibor qaratish imkonini berdi. BMT Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-maydagi 75-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida"gi maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-maydagi 75-sessiyasida "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida"gi maxsus rezolyutsiyasini amalga oshirish choralari to'g'risida"gi Qarori asosda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha Idoralararo komissiya tashkil etildi [16]. Olib borilgan sa'yi harakatlar natijasida keyingi yillarda Orolbo'yi hududida 1,2 million gektar maydonda o'rmonzorlar, yashil qoplamalar barpo etildi. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2018-yil noyabr oyida Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi doirasida Mo'ynoq tumanida bo'lib, Orolning qurigan maydoniga saksovul ekish vazifasi belgilab berdi va shu yili kuz-qish mavsumida 411 ming gektar maydonga saksovul, qandim, cherkez va tuzga chidamli boshqa o'simliklar ekildi [17]. Qo'shimcha 1,7 million gektar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etildi, "yashil Orol dengizi" dasturi doirasida 742 ming gektar yerda yashil qoplamali o'rmonzor, Nukus, Urganch va Xiva shaharlari atroflarida daraxtzorlardan iborat "yashil belbog"lar barpo etildi. 2021-yilda Orol dengizining qurigan hududlarida 458 ming gektar maydonda, mazkur mintaqaga kiruvchi Xorazm, Buxoro, Navoiy viloyatlarida 148 ming gektarga saksovul hamda boshqa cho'l o'simliklari urug' va ko'chatlari ekilib, himoya o'rmonzorlari yaratildi [18].

Orolbo'yi hududining tuproq-iqlim sharoitiga mos o'simliklarni yetishtirish, ularni parvarishlash va kasallik hamda zararkunandalardan himoyalash, sho'rlangan tuproqlar unumdorligini tiklash, tuz va qum migratsiyasi yo'nalishlarini o'rganish, biologik, meteorologik va geologik tadqiqotlar o'tkazish ishlari amalga oshirila boshlandi. Shu maqsadda Orol dengizining qurigan tubida yuzaga kelayotgan dolzarb ekologik muammolarni ilmiy asosda hal etishga qaratilgan amaliy tadqiqotlar uchun 2025 yilda Mo'ynoq tuman markazidan 65 km uzoqlikdagi hududda maxsus ilmiy-tadqiqot stansiyasi barpo etildi [19]. Mazkur stansiya Orolbo'yi hududidagi ekologik muhitni yaxshilash, bioxilma-xillikni tiklash hamda cho'l sharoitida flora va fauna rivojiga ilmiy asosda ko'mak berishga xizmat qiladi.

Bioxilma-xillik bu ko'p sonli o'simlik va hayvonot dunyosi turlarini barchasining mavjudligi albatta inson turmush kechirishi uchun sharoit demakdir. Mazkur boylikning saqlanishi ekologik muvozanatni ta'minlash, ekotizimlarning barqaror faoliyatini saqlab qolish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Shu bois dunyo hamjamiyat tomonidan 1973 yilda bioxilma-xillikni saqlab qolish, yovvoyi hayvon va o'simliklarning yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlari bilan xalqaro savdoni tartibga solish to'g'risidagi xalqaro kelishuv CITES Konvensiyasini imzolaydi va 1975 yildan kuchga kirdi. Turli o'simlik va hayvon turlarini muhofaza qilish hamda biologik xilma-xillikning yo'qolib borishini oldini olish maqsadida 1992-yilda BMT tomonidan Biologik rang-baranglik to'g'risidagi Konvensiya qabul qilindi [20]. Mazkur konvensiya davlatlarni biologik resurslardan barqaror foydalanish, noyob va yo'qolib borayotgan turlarni himoya qilish hamda ulardan noqonuniy foydalanishga qarshi kurashish bo'yicha majburiyatlar o'zida ifodalagan. Mazkur global sa'y-harakatlar fonida yovvoyi hayvonlar bilan noqonuniy savdo masalasi jiddiy ekologik, iqtisodiy va kriminal muammo sifatida alohida e'tibor talab etmoqda.

Bioxilma-xillikni saqlash, tabiiy majmualar, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish va nazorat qilishga doir chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish hamda amalga oshirish, bioxilma-xillikni o'rganish va muhofaza qilish sohasida O'zbekiston Respublikasi xalqaro aloqalarni rivojlantirmoqda. Hozirda O'zbekistonning umumiy biologik xilma-xilligi 27000 dan ortiq turni tashkil etadi. Respublika hududida 4400 ga yaqin o'simlik turlari va 2000 dan ortiq zamburug' turlari uchraydi. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj, kamyob va relik turlari mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga 48 ta oilaga mansub 313 turdagi o'simlik turlari kiritilgan [21]. O'zbekiston faunasida umurtqali hayvonlarning 714 turi mavjud bo'lib, umurtqasiz hayvon turlari esa 15 mingdan ortiqni tashkil qiladi. So'nggi yillarda tabiatdan foydalanishning kuchayishi oqibatida ko'plab hayvon turlari kuchli antropogen ta'sir ostida qolishi sababli ularning yashash joylari va soni qisqardi, ba'zilari esa butunlay yo'q bo'lib ketdi. Ayniqsa, ov obyektlari sifatida muhim ahamiyatga ega sutemizuvchilar va qushlarning yirik turlari, shuningdek, inson tomonidan ayovsiz o'zlashtirilayotgan, tashqi ta'sirga unchalik chidamli bo'lmagan ekotizimlarning endemik va cheklangan turlari katta xavf ostida qoldi. Natijada muhofazaga muhtoj va yo'qolib borayotgan hayvon turlaridan O'zbekistonning Qizil kitobiga sutemizuvchilarning 30 turi, qushlarning 52 turi, sudralib yuruvchilarning 21 turi, baliqlarning 17 turi, halqasimon chuvalchaglarning 3 turi, mollyuskalarning 14 turi va bo'g'imoyoqlilarning 66 turi kiritildi [22].

Bioxilma-xillikni saqlash borasida 2025-yil 23-noyabr - 5-dekabr kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan CITES CoP20 konferensiyasi dolzarb ahamiyat kasb etib, O'zbekiston CITESning 185 ta tomoni (184 ta davlat + Yevropa Ittifoqi) hamda yovvoyi tabiatni muhofaza qilish va savdo sohasidagi keng doiradagi manfaatdor tomonlarning uchrashuviga mezbonlik qilgan Markaziy Osiyodagi birinchi davlat hisoblanadi [23]. CITES CoP20 konferensiyasida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi A.Abduhakimov bugungi kunda yovvoyi hayvonlar bilan noqonuniy savdo qilish dunyodagi eng yirik jinoyatlardan biri ekanligi, giyohvand modda, qurol-yarog' va odam savdosidan keyin to'rtinchi o'rinda turishini ta'kidlaydi [24]. Shu nuqtai nazardan, biologik rang-baranglikni saqlashga qaratilgan xalqaro konvensiyalar, milliy strategiyalar va CITES kabi global mexanizmlarning ahamiyati katta bo'lib, davlatlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish hamda noqonuniy savdoga qarshi kurashning institutsional asoslarini mustahkamlash hozirgi davrning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu ma'noda, 1994-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi va "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunlarning qabul qilinishi davlat qo'riqxonalar o'rmonlari, davlat milliy va tabiiy parklar, davlat tabiiy yodgorliklar holati, ulardan foydalanish, ularni uzluksiz ko'paytirish, muhofaza qilish va qo'riqlash ustidan idoraviy nazoratni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirishni mustahkamladi [25]. 2004-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlari to'g'risida"gi Qonuni respublikada bioxilma-xillikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etib, tipik, noyob, qimmatli tabiiy obyektlar va majmualarni, o'simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolish, inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatishi oldini olish va tabiiy jarayonlarni

o'rganishdan, atrof tabiiy muhit monitoringini olib borishni tartibga solmoqda [26]. O'zbekiston Respublikasida 2008-2012 yillarda Global ekologik fond, BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda "Qo'riqxonalar misolida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar milliy tizimi barqarorligini mustahkamlash" bo'yicha 4 mln AQSH dollari miqdoridagi loyiha amalga oshirildi [27]. Yovvoyi tabiat bog'lari, parvarishlash markazlari va mahalliy o'simliklar uchun xususiy sektor investitsiyalarini rag'batlantirish, bioxilma-xillikni asrashni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2016-2021-yillar davomida umumiy maydoni 2420586,3 gektarga teng bo'lgan 5 ta muhofazalangan tabiiy hududlar ("Janubiy Ustyurt" milliy tabiiy parki, Xorazm milliy tabiiy parki, "Sudoche-Akpetki" davlat qo'riqxonasi, "Saygachiy" kompleks (landshaft) qo'riqxonasi va Ugom-Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi) tashkil etildi [28].

4. Xulosalar:

O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik rang-baranglikni saqlash sohasida BMTning turli tuzilmalari, xususan BMTTD (BMT Taraqqiyot Dasturi), UNEP (BMT Atrof-muhit dasturi) va boshqa ixtisoslashgan tashkilotlari bilan hamkorlik munosabatlari respublikada ekologik siyosatining samaradorligini oshirishga, suv resurslari, havoning ifloslanishi, biologik xilma-xillikni saqlash va iqlim o'zgarishiga moslashish sohasida ilg'or tajriba va texnologiyalarni joriy etishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston BMT bilan hamkorlikda ekologik barqarorlik, yashil iqtisodiyot va iqlim strategiyalarini ishlab chiqishda xalqaro moliyaviy va texnik yordam olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa nafaqat hududiy ekologik muammolarni hal qilish, balki global ekologik tashabbuslarda faol ishtirok etish imkonini yaratdi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar, xususan BMT bilan ekologiya yo'nalishidagi hamkorlik munosabatlari mamlakatda atrof-muhitni muhofaza qilishni yanada takomillashtirish, mavjud resurslarni samarali boshqarish va iqlim o'zgarishlarining salbiy ta'sirlarini kamaytirishga doir chora-tadbirlarni kuchaytirishga katta hissa qo'shmoqda. Bu esa xalqaro tajriba va standartlar asosida davlatning ekologik siyosatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, barqaror rivojlanishga erishish va xalqaro majburiyatlarni bajarish imkonini taqdim etmoqda.

Iqtiboslar / Сноски / References:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti: asosiy omillar / BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi. -Toshkent, 2001 y. -B.236-237.
2. [\(https://ru.wikipedia.org/wiki/Парижское_соглашение_\(2015\)\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Парижское_соглашение_(2015)) (26.11.2025 й.)
3. G'afforov X. Iqlim o'zgarishining oldini olish uchun nimalar qilish kerak?// Xalq so'zi, 2020-yil, 15-may.
4. Xalq so'zi, 2015 yil 20 may. №100 (6283) –B.1.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqi //Yangi O'zbekiston. 2021-yil 22-sentabr. № 189 (445), -B.1.
6. Xo'jayeva M. Soxta raqamlardan xoli real natijalarga erishish kerak // Xalq so'zi, 2022 yil 18 may. №102 (8164) –B.4.
7. Iqlim o'zgarishlari to'g'risidagi BMTning Hadli Konvensiyasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Birinchi Milliy axboroti, 1999.
8. Orifxo'jayev S. O'zbekiston tabiati: muammo va yechimlar // Jamiyat va boshqaruv, -Toshkent, 2000.№2.-B. 71.
9. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: "O'zbekiston", 2011. -B.279.
10. Gafurova L.A., Abduraxmanov T.A., Jabborov Z.A., Saidova M.E. Tuproqlar degradatsiyasi. –T.: 2012. –B.218.
11. O'zbekiston Milliy Arxivi, 2454-fond, 6-ro'yxat davomi, 7274-yig'ma jild, 12-varaq.

12. Казаков М. Деятельность Исполкома МФСА в водном секторе. Презентация. Международный Семинар: «Речные бассейновые комиссии и другие органы по трансграничному сотрудничеству в области управления водными ресурсами». 23-25 октября 2007 г., Алматы, Казахстан. (www.unesco.org).
13. Abdimo‘minov O. Markaziy Osiyo davlatlarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan munosabatlari tarixi. Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. 2025 y. -B.27.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 19 sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi // Xalq so‘zi. 2017 yil, 20 sentabr.
15. Abdimo‘minov O. Markaziy Osiyo va Birlashgan Millatlar Tashkiloti [Matn]/ - Toshkent: Akademnashr, 2025 y. -B.149.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 iyuldagi “Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2021 yil 18 maydagi 75-sessiyasida “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilish to‘g‘risida”gi maxsus rezolyutsiyasini amalga oshirish choralari to‘g‘risida”gi Qarori. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.07.2021 y., 07/21/5202/0726-son.
17. Ulug‘murodov D. Orolbo‘yi hududi: armonga aylangan to‘lqinlar // Xalq so‘zi, 2022 yil 21 yanvar. №14 (8076) –B.2.
18. Qorjovov A. Orolbo‘yi: innovatsiya va texnologiyalar hududining yangi davri //Yangi O‘zbekiston, 2022 yil 18 fevral. № 36 (558) -B.1-4.
19. <https://daryo.uz/2025/11/30/orol-dengizining-qurigan-tubida-ilmiy-tadqiqot-stansiyasi-ish-boshladi> (30.11.2025 y.)
20. Birlashgan Millatlar Tashkiloti: asosiy omillar./ BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi. -Toshkent, 2001 y. -B.239.
21. O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi, 1-jild: O‘simliklar; F.O‘.Hasanovning umumiy tahriri ostida.-T.: “Chinor ENK” ekologik noshirlik kompaniyasi. 2019 y, -B.3-4.
22. O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi, 2-jild: Hayvonlar; J.A.Azimovning umumiy tahriri ostida.-T.: “Tasvir” nashriyot uyi, 2019 y, -B.3-4.
23. Ekologiya xabarnomasi//№1, 2025 y.-B.6.
24. <https://gov.uz/oz/eco/news/view/104548> (25.11.2025 y.)
25. O‘zbekiston Milliy Arxivi, M-96-fond, 1-ro‘yxat, 258-yig‘ma jild, 75-varaq.
26. <https://lex.uz/docs/415135?ONDATE=07.06.2022> (26.11.2025 y.)
27. Davletov S. O‘zbekistondagi ekologik vaziyat va uning ijtimoiy muammolari (XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshi). –T.: Fan, 2012. -B. 223.
28. Юксалиш общенациональное движение. Итоги реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2020 годах [Текст]: информационный бюллетень/ Б.Бекмуродов [и др.]. –Ташкент: Baktria press, 2021. - С. 143.



Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000